

ABDULLA ORIPOV SHE'RIYATIDA ESTETIK TA'SIR MASALASI



Guliston davlat pedagogika inistituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

1-bosqich talabasi Farangiz Xolmurodova

Annotatsiya: XX asr o'zbek adabiyoti va she'riyatining taniqli vakili hamda O'zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi matni muallifi -Abdulla Oripov. O'zbek xalqining milliy tiklanishi, hurfikrlilik va mustaqillik uchun kurashda Abdulla Oripov she'riyati katta o'rin tutadi. Chuqur falsafiylik ,milliy ruh , diniy-axloqiy mezonlarga sadoqat shoir she'riyati asoslarini tashkil etadi.

Abstract: Abdullah Oripov is a well-known representative of Uzbek literature and poetry of the 20th century and the author of the text of the National Anthem of the Republic of Uzbekistan. Abdulla Oripov's poetry plays an important role in the struggle for the national revival of the Uzbek people, fanaticism and independence. Deep philosophy, national spirit, devotion to religious and moral criteria form the foundations of the poet's poetry.

Kalit so'zlar: Milliy ruh, ruhiy olam, ifoda usuli, tabiat va jamiyat, hamjihatlik, xalq g'ami, "o'ychil g'am "va "g'amchil o'y ",nozik misra, funksional bo'yoq.

Keywords: national spirit, spiritual world, mode of expression, nature and society, harmony, folk grief, "thoughtful grief "and "caring mind ",delicate verse, functional paint.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi muallifi, o'zining o'lmas she'rlari bilan minglab qalblarga kirib borgan, serqirra ijodkor- Abdulla Oripov , 1941-yil 21-martda (ayni Navroz ayyomi kunida) Qashqadaryo viloyati Kosonsoy tumani Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. Uning otasi Orifboy Ubaydulla o'gli mahalliy kolxoz vakili bo'lgan. Onasi Turdi Erdona Karvon qizi shoirning kamol topishida, xalq qalbida o'chmas iz goldirishiga bevosita turtki bo'lgan desak ajabmas. Oilada sakkiz nafar farzand- to'rt o'gil,to'rt qiz bo'lishgan, Abdulla Oripov o'gillardan eng kenjas edi. 1958-yil o'rta maktabni oltin medal bilan tamomlagan. "Qushcha " nomli ilk she'rini universitetda o'qigan kezlari yozgan. Ilk she'riy to'plami "Mitti yulduz " nomi bilan 1965-yili chop etilgan. Shundan keyin asta-sekinlik bilan uning she'rlari o'z muxlislarini topa oldi. Jumladan, "Ko'zlarim yo'lingda" , "Onajon ", "Chashma", "Ruhim", "O'zbekiston ",



"Hayrat", "Yurtim shamoli", "Sen bahorni sog‘inmadingmi?", "Birinchi muhabbatim", "Munojot" singari ko‘plab she’rlari barcha uchun birdek bo‘la boshladi. Abdulla Oripov-rostgo‘y ijodkor sifatida xalqimizning quvonchiga ham dard -u g‘amiga ham birdek sherik . Shunga ko‘ra uning ijodida shodlik va quvonch tuyg‘usi ko‘pincha tashvish ,dard-u alam tuyg‘usi bilan uzviy birgalikda namoyon bo‘ladi⁹.

Asosiy qism. Hayotda shunday insonlar bor-ki, ular o‘z hunari,kasb -korini eng yaqin insonlari qatorida qadrlaydi, ardoqlaydi, hayotining mazmuniga aylantiradi. Abdulla Oripov deganimizda ko‘z o‘ngimizda beixtiyor qalblarni larzaga soluvchi,ko‘ngillar torini chertib o‘tuvchi she’riyat dunyosini o‘z qalami bilan titrata olgan ulkan qalb egasi gavdalaniadi. Ayniqsa,shoirning, "Sen bahorni sog‘inmadingmi?..." she’rining o‘tli, ta’sirchan misralari, she’rni o‘qigan har bir insonning qalbiga shifo bo‘lib kiradi.

Uyg‘onguvchi bog‘larni kezdim,

Topay dedim qirdan izingni.

Yonog‘ingdan rang olgan dedim

Lolazorga burdim yuzimni,

Uchratmadim ammo o‘zingni,

- Sen bahorni sog‘inmadingmi?...

ushbu misralar bilan boshlanuvchi she’rida shoirning bahorni sog‘inganligi , bahorni qo‘msab, tabiat qo‘yniga chiqib , bahra olganligi, ... Uzoqlarda zalvorli tog‘lar,Xayolimni keldilar bosib...

Tabiatni go‘zal tasvirlab bergenligi yaqqol namoyon bo‘ladi.

Abdulla Oripov o‘zbek she’riyatiga o‘z ohanglari, o‘z ifoda usuli , borliqqa tabiat va jamiyatga, odamlarning ruhiy olamiga o‘z qarashlariga ega bo‘lgan, shoir sifatida kirib keldi. O‘tgan asrning 60- 70- yillarida Abdulla Oripov she’riyati o‘zbek millati tuyg‘ularini samimiyyatsizlikdan saqlab qoldi. Shoir O‘zbekistonni otashin bir sevgi bilan sevadi. Bor og‘riqlari,bor azobi bilan sevdi .A.Oripov she’riyatini millat ruhining timsoliga aylantirgan sifatlardan yana biri undagi obrazlarning teran xalqchil tomirlarga egaligida. Eng murakkab holatlarni ham g‘oyat ulkan nazokat va yuksak madaniyat bilan ta’sirli qilib , o‘zbekcha ifodalay bilish shoir she’rlarining qimmatini oshiradi.

⁹ Yo‘ldoshev Q, Qodirov V, Yo‘ldoshbekov J. Adabiyot, Umimiyo‘rta ta’lim mакtablarining 9- sinfi uchun darslik. – Toshkent.: O‘zbekiston, – 2019.



Men nechun sevaman O'zbekistonni

Tuprog'in ko'zimga aylab to'tiyo,

Nechun Vatan,deya yer-u osmonin

Muqaddas atayman atayman tanho...

shu kabi misralar bilan boshlanuvchi she'rida, shoirning Vatanga bo'lgan mehri ,ona yurtiga bo'lgan sadoqati yaqqol namoyon bo'ladi. Bu she'rida millat ruhi, insonlar o'rtaсидаги о'заро муносабат , hamjihatlik, mehr- oqibat , ona yurtini e'zozlash, Vatanga bo'lgan muhabbat aks etgan.

Dunyoda shoirman degan zot bor-ki, ularning eng samimiy, eng jozibali satrlari onalariga bag'ishlangan. O'zbek she'riyatida ona haqida yozilgan she'rlar ko'p. Ularning eng hayajonlisini ustoz Abdulla Oripov yozgan,desam xato qilmayman.

She'r, Necha kunki yo'q oromim misralari bilan boshlanar ekan, beixtiyor onalarimizni yodga olamiz. Bu she'rni berilib, o'qigan insonning ko'ziga yosh kelishi tabiiy holdir.

She'r g'oyatda ta'sirchan bo'lib, ortiqcha jumladan shoir onasiga qarata, shu she'rimni senga bag'ishladim,...Bor hayotim ,nomim , shonim barchasini deya e'tirof etadi.

Munozara bo'limi: Ona yurtni kuylamoq har bir ijodkor uchun ulug' saodat. Har qanday tuzumda ham xalq manfaatini o'ylab, adolatni tarannum etmoq esa chinakam qahramonlikdir. Bunday sharaf hamma ijodkorga ham nasib etavermaydi¹⁰.

Yurtim ,senga she'r bitdim bu kun,

Qiyosingni topmadim aslo.

Shoirlar bor, o'z yurtin butun

Olam aro atagan tanho...

Shoirning "O'zbekiston " qasidasi hajman salmoqli, har biri 10 satrlik 14banddan iborat.

Jami- 140 satr. Banddag'i toq va juft satrlar o'zaro qofiyalanib kelgan. Har bandning so'nggi bayti bir - biri bilan qofiyalanadi. She'r g'oyat muhim mavzuga , Ona Vatanimiz sha'niga bag'ishlangan. Qasidaning har bir bandi " O'zbekiston - Vatanim manim!" degan g'ururbaxsh satr bilan yakunlanadi. Xususan, she'rda qaratqich kelishigi qo'shimchasi (-

¹⁰ Manba: "Hurriyat" gazetasidan olindi. (2008)



ning) shaklini o‘zgartirib, ya’ni "mening" o‘rniga "manim" tarzida qo‘llashi ham aynan, she’rning badiiy qiymati oshishiga xizmat qilgan.

She’r 1968- yilda yozilgan edi. Bu paytlari "SSSR - bizning yagona Vatanimiz!" degan soxta shior million- million insonlar ongiga singdirilgan edi. Abdulla Oripov shunday bir sharoitda : " O‘zbekiston - Vatanim manim! " - deb chiqdi. Bu jasorat edi.

Bu she’r yana bir mashhur shoirmiz Erkin Vohidovning " O‘zbegin "qasidasi bilan deyarli bir vaqtida yozildi va ikkala asar xalqimizning o‘zligini anglashida sezilarli rol o‘ynadi¹¹.

Mahmud Toir Abdulla Oripov ijodining elparvarlik va fidoiylik mahsuli ekanligini uqtirdi. So‘ngra Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universitetining Toshkent shahridagi filiali direktori, akademik Qalandar Abdurahmonov shoirning Italiya bilan bog‘langan ijodiy faoliyati, xususan Dante Aligerining " Ilohiy komediya "sini tarjima qilgani borasida so‘zlab, o‘zining Abdulla Oripovga ehtirom nuqtai nazaridan " Buyuklar kakhashonida" nomli kitob yaratganini aytib o‘tdilar. Shuningdek Italiya haqida "Go‘zal Italiya- maftunkor diyor" nomli kitob chop ettirganini aytib har ikkasini ham namoyish qildilar.

"Abdulla Oripov haqida ko‘plab filmlar ishlash mumkin , chunki uning shaxsiyati va ijodi cheksiz ummon kabi"- ta'kidlaydi Xo‘jayorov.(Keldiyor Xo‘jayorov Sputnik, Abdulla Oripovning do‘sstaridan biri.)¹²

Natijalar bo‘limi: Abdulla Oripovning " O‘zbekiston " she’rida,

Amerika - sehrli diyor ,

Uxlar edi Kolumb ham hali,

Dengiz ortin yoritdi ilk bor,

Beruniyning aql mash‘ali...

Amerika qit‘asini Beruniy bobomiz bundan besh yil oldin bashorat qilgan edi.Hind okeani sohillarida uzoq tekshirishlar olib borib bu suvlarning olis bir materikdan qaytishini taxmin qilgandi va bu Amerika bo‘lib chiqdi.Uning kashf etilishi shuhrati esa Kolumbga o‘tib ketdi. Shoirning Kolumbdagi alami borligi shundan.

¹¹ 'A.Oripov." Tanlagan asarlar". 1- jild. She’rlar va dostonlar , by Khurshid Davron on Scribd.

¹² Abdulla Oripov- Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik. Ikkinchi jild.



Oq yo'rgakka o'ragansan o'zing bizni,
Ham oq yuvib taragansan o'zing bizni.

Beshigimiz uzra bedor ona bo'lib ,
Kunimizga yaragansan o'zing bizni.
Fidoying bo'lgaymiz seni, O'zbekiston,
Hech kimga bermaymiz seni,

O'zbekiston ! (Tavallo - Muhammad Yusuf she'ri).

Har qanday shoir bor-ki, birinchi navbatda , o'z Ona Vatani, tug'ilib o'sgan muqaddas go'shasi haqida she'r yozmagan bo'lsa! Deyarli o'zbek shoirlarining barchasi "

O'zbekiston" deya atalmish jannatmakon yurt haqida o'zlarining ajoyib misralarini bitgan desam , adashmagan bo'laman. Masalan : Hamid Olimjon "O'zbekiston" , Erkin Vohidov "O'zbegin" qasidasi, Muhammad Yusuf " Vatanim ", Abdulla Oripov - "Men nechun sevaman O'zbekistonni?"

" Aytgil do'stim nima qildik, Vatan uchun " Iqbol Mirzo , " Vatan " Xurshid Davron ... hali ko'plab davom ettirishimiz mumkin.

Zamondosh ijodkorlar orasida birinchi bo'lib Vatan va xalqning og'riqli dardini qalamga olgani , hasrat chekib, ehtirosli kuylagani,millat qadr qimmati , sha'ni uchun kurashganini Abdulla Oripov ijodida yaqqol namoyon bo'ladi¹³ . '

Xulosa. Abdulla Oripov serqirra ijodkor. Uning deyarli ko'pgina she'rlarida xalq g'amini o'ylagani, xalqi uchun fidokorligi, yonib kuygani uning she'rlaridagi ta'sirchan misralardan sezsak ajabmas.U faqat she'rlar yozish bilan chegaralanib qolmasdan bir qancha dostonlar, dramalar muallifi hamdir. Endilikda , bir jumлага to'xtaladigan bo'lsak; Abdulla Oripov tuyg'ulari o'zbek she'riyatiga o'ychil g'am va g'amchil o'y olib kirdi,darhaqiqat, shoir qalbida kechgan his -tuyg'ulari,uning she'rlaridagi nozik misralardan payqab olamiz.

Nochorning ustidan kulma hech qachon,

Bilmasdan kamsitma, boyvachcha o'g'lon ,

¹³ 'Abdurahim Erkayev , Oliy Majis Senati a'zosi.



Topgan aqchasiga non olgaydir u,

Keksa onasiga yo dori - darmon .

"O‘ychil g‘am " nima-yu "g‘amchil o‘y " nima? Deyarli ikkalasi ham bir xil. Ammo shoir bekorga bunday deb aytmagan. Bu jumlalar ortida katta ma'no, mazmun mujassam... ta'rif berishning o‘zi bir olam , odamni o‘yga toldiradi. Ya'ni shoir aytmoqchiki har bir insonning o‘ziga yarasha g‘am tashvishi , qiyinchiliklarga duchor bo‘lishi bor ; Bir gap bilan aytganda "Mashaqqatsiz- rohat yo‘q" demoqchi bo‘ladi shoir. "G‘am "va "o‘y " bir xil tushuncha emas ikkalasi ham boshqa- boshqa ma'nolarni bildiradi,biroq biri ikkinchisini to‘ldiradi, o‘rnini bosadi. O‘ydan ko‘ra "g‘am "tushunchasining funksional bo‘yogi kuchliroq.

Dunyoda tiriklik emasdир oson ,

Xudkashlik esa-chi, yomondan yomon.

Faqat Yaratganning ismin takror et,

Boshqa chora yo‘qdir, yo‘q o‘zga imkon...

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :

- 1.Abdulla Oripov. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent- 2001. Abdulla Oripov hayoti va ijodi.
2. Abdulla Oripov- Tanlangan asarlar. To‘rt jildlik .Ikkinchi jild. www. ziyo.uz. com kutubxonasi.
3. A.Oripov , Ehtiyoj farzandi,- Toshkent. : Yosh gvardiya nashriyoti. 1988.
4. A. Oripov. Tanlangan asarlar. - Toshkent. : " Sharq " nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2019.
5. Abdulla Oripov. "Sen bahorni sog‘inmadingmi ",- Toshkent. G‘afur G‘ulom, 1984.
6. Abdulla Oripov. "Onajonim",- Toshkent. G‘afur G‘ulom, 1966.